

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	
RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....	116
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	125
Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi	
SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....	129
O'runboyeva Sotima Alisher qizi	
GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....	134
Kaydarova Sitara Suranbay qizi	
KORXONALAR QIYMATINI BAHOLASH VA BOZOR BAHOSINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI.....	139
Abduraxmanov Sherzodbek Ravshanovich	
YASHIL IQTISODIYOT: EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI.....	145
Jamalidinova Asalxon Saliyevna	
2025-YILDA O'ZBEKISTON UCHUN ENG YAXSHI 10 TA TRANSPORT TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARI	151
Mamasaliyeva Mukaddas Ibadullayevna, Beketov Timur Kazakbayevich	



MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLARI: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TIZIMLAR QIYOSIY TAHLILI	155
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ	163
Хайдарова Ёркиной Аскар кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING FISKAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	170
Mamatova Nodira Mirzavaliyevna	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ МОДЕЛИ ПЕРЕХОДА ТЕПЛИЧНЫХ ХОЗЯЙСТВ ТАШКЕНТСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ НА СОЛНЕЧНЫЕ СИСТЕМЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ	178
Срождидинова Зарина Хайриддиновна, Абдувалиева Зилола Абдуллаевна	
MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	186
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
RIVOJLANISHDA RAQOBAT EMAS, BALKI HAMKORLIKNING USTUVORLIGI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL	190
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI VA "QAMRAB OLINMAGAN O'RTA QATLAM" MUAMMOSI	196
Bafoev Farrux Jo'raqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA EKOLOGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	202
Shanazarova Gulyoraxon Baxtiyarovna	
O'ZBEKISTON STARTAP EKOTIZIMIDA INVESTITSIYA JALB QILISH JARAYONINING INSTITUTSIONAL MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARI	208
Xoliqova Xurshidaxon Xayotjon qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA STARTAP EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	214
Usmanov Gafurjon Shavkatovich	
QURILISHDA ISHLAB CHIQRISH VA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMLARINING RIVOJLANISHI	220
Buriyev Xakim Toshimovich, Usmanov Ilxom Achilovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION MUHITNI TAKOMILLASHTIRISHNING STRATEGIYALARI	225
Xolov Sherali Axrorboyevich	
2010-2024-YILLARDA O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIKNI INVESTITSIYALASHNING EKONOMETRIK TAHLILI	229
Ashurov Shuhratbek Quдрat o'g'li	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY USULLARI	233
Sherbekova Kamola Norbekovna	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGI DARAJASI VA UNI BAHOLASHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI	243
Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich	
MARKAZIY BANK KURS SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	249
Saydullayev Nodirbek Narzullaevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH SALOHİYATI VA MUAMMOLARI	258
Raupov Shuxrat Soyibovich	
ЭКОТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	264
Абидова Дилфуза Игамбердиевна, Рахматуллаева Зулайхо Хасан кизи	
DIGITAL ECONOMY AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: BUSINESS CHANGE IN THE REGIONS	270
Abdullayev Muzaffar Abdujabbarovich	



QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASHDA IOT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	273
Mirzaev Dilshod Artikovich	
ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА	279
Касимова Наргиза Сабитджановна	
YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY ASOSLARI VA UNGA ILMIY YONDASHUVLAR.....	284
Ismoyilova Mahliyo Oybek qizi	
BOSHQARUVDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR (OLIY TA'LIM MISOLIDA).....	289
Karieyva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	



BOSHQARUVDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR (OLIIY TA'LIM MISOLIDA)

Karieyva Gulnora Abdullayevna

Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti

Normurodov Sarvar Norboy o'g'li

Toshkent davlat agrar universiteti katta o'qituvchisi

Orcid: 0009-0009-1241-9339

E-mail: s.n.normurodov@bk.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshqaruvda zamonaviy yondashuvlarning nazariy va amaliy jihatlarini oliy ta'lim tizimi misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda boshqaruv kompetensiyasini shakllantirishda funksional, shaxsiy va vaziyatli yondashuvlarning ahamiyati yoritilib, ularning oliy ta'lim muassasalarida rahbar kadrlar hamda boshqaruv salohiyatiga ega talabalarni tayyorlash jarayonidagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, rahbar shaxsining intellektual qobiliyati, ijodiy fikrlashi, qaror qabul qilish tezligi hamda jamoani samarali boshqarish ko'nikmalari boshqaruv samaradorligini ta'minlovchi muhim omillar sifatida tahlil qilingan. Maqolada vaziyatli boshqaruv nazariyasi asosida turli boshqaruv sharoitlarida rahbarning xulq-atvori va boshqaruv uslubi o'zgarishi mumkinligi ilmiy jihatdan izohlangan. Bundan tashqari, zamonaviy boshqaruv tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish, ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish, innovatsion menejment hamda strategik boshqaruv tamoyillarini joriy etishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: boshqaruv, zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, oliy ta'lim, boshqaruv kompetensiyasi, vaziyatli boshqaruv, innovatsion menejment, raqamli boshqaruv, strategik boshqaruv.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of modern management approaches using the example of the higher education system. The study highlights the importance of functional, personal, and situational approaches in the formation of management competence and scientifically substantiates their role in the preparation of managerial personnel and students with managerial potential in higher education institutions. In addition, the intellectual abilities of a leader, creative thinking, speed of decision-making, and the ability to effectively manage a team are analyzed as key factors ensuring management effectiveness. Based on the theory of situational management, it is scientifically justified that the behavior and management style of a leader may change depending on different managerial conditions. Furthermore, particular attention is paid to the importance of implementing digital technologies, data-driven decision-making, innovative management, and strategic management principles in modern management systems.

Key words: management, modern management approaches, higher education, management competence, situational management, innovative management, digital management, strategic management.

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретические и практические аспекты современных подходов к управлению на примере системы высшего образования. В исследовании раскрывается значение функционального, личностного и ситуационного подходов в формировании управленческой компетентности, а также научно обосновывается их роль в подготовке управленческих кадров и студентов, обладающих управленческим потенциалом, в высших образовательных учреждениях. Кроме того, интеллектуальные способности руководителя, креативное мышление, скорость принятия решений и навыки эффективного управления коллективом рассматриваются как важные факторы, обеспечивающие эффективность управления. На основе теории ситуационного управления научно обосновано, что в различных управленческих условиях поведение и стиль управления руководителя могут изменяться. Также особое внимание уделяется использованию цифровых технологий в современной системе управления, принятию решений на основе данных, внедрению инновационного менеджмента и принципов стратегического управления.

Ключевые слова: управление, современные подходы к управлению, высшее образование, управленческая компетентность, ситуационное управление, инновационный менеджмент, цифровое управление, стратегическое управление.



KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimining huquqiy, tashkiliy hamda institutsional asoslarini mustahkamlash maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar ta'lim jarayonining mazmunini yangilash, boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish hamda zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida rivojlantirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz". Mazkur fikr ta'lim tizimini, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarini boshqarishda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, Prezidentning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan Murojaatnomasida ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, ilm-fan hamda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash milliy taraqqiyotning asosiy ustunlari sifatida e'tirof etilgan.

Hozirgi davrda oliy ta'lim muassasalarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar, strategik rejalashtirish, raqamli texnologiyalarni qo'llash hamda samarali menejment usullarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy boshqaruv yondashuvlari ta'lim jarayonining sifatini oshirish, professor-o'qituvchilar faoliyatini samarali tashkil etish hamda talabalarning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, liderlik kompetensiyalariga ega bo'lgan talabalarni tayyorlash hamda ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish oliy ta'lim muassasalari boshqaruvining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim menejmenti nazariyasida tizimli yondashuv muhim metodologik asos sifatida qoraladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, oliy ta'lim muassasasi tashqi muhit bilan o'zaro aloqada faoliyat yurituvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida talqin etiladi. Shu sababli boshqaruv jarayonida strategik boshqaruv, innovatsion menejment, sifat menejmenti hamda raqamli transformatsiya kabi zamonaviy yondashuvlardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy boshqaruv nazariyasi hamda ta'lim menejmenti sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar oliy ta'lim muassasalarini samarali boshqarishda turli metodologik yondashuvlardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy boshqaruv tizimlari murakkab va tez o'zgaruvchan tashqi muhit sharoitida tashkilotlarning moslashuvchanligini ta'minlashga qaratilgan.

Masalan, Ravil Fatxutdinov zamonaviy va dinamik bozor sharoitida tashkilotlar, jumladan, oliy ta'lim muassasalari o'z boshqaruv tizimlarini hamda ularni axborot bilan ta'minlash mexanizmlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishi zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, tashkilot faoliyatini boshqarishda bir nechta yondashuvlardan kompleks foydalanish boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ilmiy manbalarda boshqaruvga turli nazariy maktablar nuqtai nazaridan yondashilgan. Xususan, Lyudmila Plexova, Tatiana Anurina va Svetlana Legkostaevalarning tadqiqotlarida boshqaruv nazariyasida mavjud qarashlarning xilma-xilligiga qaramasdan uchta asosiy yondashuv — jarayonli, tizimli va vaziyatli yondashuvlar alohida ajratib ko'rsatilgan. Ushbu yondashuvlar tashkilot faoliyatini kompleks o'rganish hamda samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Lyudmila Malishevaning ta'kidlashicha, tizimli tahlil va o'z-o'zini tashkil etish nazariyalari o'rtasidagi asosiy farq shundaki, tizimli yondashuvda asosiy e'tibor tizimning ichki tuzilmasi hamda uning elementlari o'rtasidagi bog'liqlikka qaratiladi, o'z-o'zini tashkil etish nazariyasida esa tizimning tashqi muhit bilan o'zaro aloqalari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Tizim tushunchasining nazariy asoslari Ilhom Tashbaev va Leonid Mirotninlarning ilmiy ishlarida ham keng yoritilgan bo'lib, ular "tizim" kategoriyasini uning asosiy xossalari va elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik orqali talqin qilish mumkinligini ta'kidlaydilar. Ularning fikriga ko'ra, tizim elementlarining o'zaro ta'siri va integratsiyasi tizimning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Shuningdek, Aleksandr Pochechui va Vladimir Kopnovlarning tadqiqotlarida tashkilot faoliyatini uzluksiz takomillashtirish jarayoni tizimli yondashuv asosida amalga oshirilishi lozimligi qayd etilgan. Mualliflar ushbu jarayon jarayonli yondashuv hamda mijozlarga yo'naltirilgan boshqaruv bilan uyg'unlashgan holda ISO 9001 xalqaro sifat menejmenti standarti talablariga mos keluvchi samarali sifat menejmenti tizimini shakllantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydilar.

Sergey Reznikning fikricha, zamonaviy boshqaruv nazariyasida vaziyatli yondashuv muhim o'rin tutgan bo'lsa-da, tashkilotlarni uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda tizimli yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etadi. Chunki tez o'zgaruvchan bozor sharoitida tashkilotlar nafaqat ichki jarayonlarni samarali tashkil etishi, balki tashqi muhitdagi o'zgarishlarga ham moslashib borishi zarur. Tizimli tahlilga oid ilmiy tadqiqotlarda tizimlarning muhim xususiyatlari ham keng o'rganilgan. Jumladan, Vladimir Burkov, Dmitriy



Novikov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida tizimlarning yaxlitlik, tuzilmaviylik, ierarxiklik, muhit bilan o'zaro bog'liqlik hamda ko'p omillilik kabi xususiyatlari alohida ajratib ko'rsatiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini o'rganish hamda ularning boshqaruv samaradorligiga ta'sirini tahlil qilish maqsadida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologik jihatdan tizimli, funksional hamda vaziyatli yondashuvlarga asoslandi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, boshqaruv nazariyasi, ta'lim menejmenti hamda zamonaviy boshqaruv yondashuvlariga oid ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, dissertatsiyalar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Ilmiy manbalarni o'rganish jarayonida analiz va sintez, taqqoslash, umumlashtirish hamda tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonini o'rganishda tizimli tahlil usuli qo'llanildi. Ushbu metod yordamida oliy ta'lim tizimi murakkab ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqilib, uning tarkibiy elementlari hamda ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tashkilotlarni boshqarishda tashkiliy tuzilmalarning ahamiyati muhim hisoblanadi. Anna Bikovanning fikriga ko'ra, zamonaviy tashkilotlarda boshqaruv tizimini tashkil etishning turli shakllari mavjud bo'lib, ular quyidagi asosiy turlarga ajratiladi:

- chiziqli-funksional tuzilma;
- divizional tuzilma;
- loyihaviy tuzilma;
- matritsali tuzilma.

Boshqaruv tuzilmalarining zamonaviy shakllari haqida Aleksandr Gorbunov ham muhim fikrlarni bildirgan. Uning ta'kidlashicha, zamonaviy boshqaruv tizimlarini qat'iy tipologik tasniflash qiyin bo'lib, ularning asosini umumiy tamoyillar, yondashuvlar hamda asosiy funksional elementlar tashkil etadi.

Ta'lim menejmenti nuqtai nazaridan "tizim" tushunchasi keng qamrovli bo'lib, u ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish usullari, boshqaruv mexanizmlari, moddiy-texnik baza, axborot tizimlari hamda inson resurslari o'rtasidagi o'zaro aloqalar majmuasini o'z ichiga oladi. Oliy ta'lim muassasalarini boshqarishda tizimli yondashuv quyidagi asosiy tamoyillarni o'z ichiga oladi:

- yaxlitlik va tizimlilik – tizim elementlari o'zaro bog'liq holda faoliyat yuritadi va umumiy maqsadga xizmat qiladi;
- maqsadga yo'naltirilganlik – boshqaruv jarayonida aniq strategik maqsadlar va ularga erishish vositalari belgilanadi;
- ichki muvozanat va rivojlanish – tizim tarkibiy qismlaridagi o'zgarishlar ichki jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi;
- ochiqlik va tashqi muhit bilan aloqadorlik – tizim tashqi muhit bilan uzviy aloqada rivojlanadi;
- axborot almashinuvi – boshqaruv samaradorligi axborot oqimlarining to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq;
- strategik rivojlanish – mavjud, talab etilayotgan va istiqboldagi tizimlar o'rtasidagi farqlarni hisobga olgan holda boshqaruv strategiyasi shakllantiriladi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalar, innovatsion menejment, strategik boshqaruv hamda sifat menejmenti tizimlarini joriy etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ham keng olib borilmoqda. Bu esa zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish masalasi dolzarb ilmiy muammo ekanligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda hamda xorijiy davlatlarda boshqaruv kompetensiyasining ilmiy asoslari shakllanishi uzoq tarixiy jarayon bilan bog'liq bo'lib, u boshqaruv nazariyasining rivojlanishi, boshqaruv tizimlarining takomillashuvi hamda tashkilotlarni samarali boshqarish metodlarining shakllanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Boshqaruvga ilmiy yondashuvning shakllanishi umumnazariy, umumtizimli, texnologik hamda strategik boshqaruv yondashuvlari asosida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalariga tayanadi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarini boshqarishda tizimli yondashuv muhim metodologik asos sifatida namoyon bo'ladi.

Oliy ta'lim tizimida zamonaviy boshqaruvni samarali tashkil etish uchun bir qator tizimli tamoyillarga amal qilish zarur. Jumladan:

- boshqaruv subyektlari faoliyatining aniq maqsadga yo'naltirilganligi;
- ta'lim jarayonining majmuaviyligi, ya'ni uning o'zaro bog'liq tarkibiy qismlardan iborat tizim sifatida qaralishi;
- talabalarda boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish.



Zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion boshqaruv kompetensiyasiga ega bo'lgan talaba keng qamrovli umumiy kompetensiyalarga ega bo'lishi zarur. Bular qatoriga boshqaruv sohasidagi nazariy bilimlar, huquqiy savodxonlik, mas'uliyat va moslashuvchanlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish, inklyuziv ta'lim tamoyillarini qo'llash hamda uzluksiz kasbiy rivojlanish kiradi.

Kommunikativ kompetensiya zamonaviy boshqaruv faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu kompetensiya quyidagi ko'rsatkichlarni qamrab oladi:

- boshqalarning fikrini hurmat qilish;
- samarali muloqot olib borish;
- hamkasblar bilan hamkorlik qilish;
- turli axborot-kommunikatsiya vositalari orqali samarali aloqa o'rnatish;
- jamoada o'zaro hurmat va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish.

Shuningdek, kommunikativ kompetensiya innovatsion yondashuvlarni joriy etishda ham muhim rol o'ynaydi. Rahbar yoki lider talaba o'z tashabbuslari va g'oyalarini boshqalarga tushuntira olish, ularni ishontrish hamda muhokama jarayonida muqobil fikrlarni ilgari sura olish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi ham zamonaviy boshqaruvning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu kompetensiya talabani shaxsiy va kasbiy rivojlanish strategiyasini shakllantirish, axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida yangi boshqaruv usullarini o'rganish hamda kasbiy malakani muntazam oshirib borish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Zamonaviy ta'lim tizimida uzluksiz ta'lim va "hayot davomida o'qish" (lifelong learning) tamoyillari aynan shu kompetensiyaning muhim elementlaridan biri hisoblanadi.

Innovatsion boshqaruv kompetensiyasiga ega talaba turli ijtimoiy, ilmiy va ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish hamda ularni boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Masalan, kitobxonlik tanlovlari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, media savodxonlik loyihalari yoki ilmiy seminarlarni tashkil etish orqali talabalarning tashabbuskorlik va liderlik qobiliyatlari rivojlanadi.

Mas'uliyat va moslashuvchanlik kompetensiyasi ham zamonaviy boshqaruv jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bu kompetensiya ta'lim ehtiyojlarini o'rganish, ta'lim xizmatlarini samarali tashkil etish, strategik rejalashtirish, ta'lim sifatini monitoring qilish hamda talabalarning o'quv natijalarini tahlil qilish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, rahbar yoki lider talaba jamoa a'zolarining psixologik holatini hisobga olgan holda motivatsiya berish va ijtimoiy moslashuvni ta'minlash qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

Huquqiy kompetensiya ham boshqaruv faoliyatida muhim o'rin tutadi. Bu kompetensiya ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilish, mehnat munosabatlarini tartibga solish, oliy ta'lim tizimida huquq-tartibotni ta'minlash hamda ta'lim jarayonida qonuniylik tamoyillariga rioya qilishni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy boshqaruvda inson kapitalini rivojlantirish ham ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Inson kapitalini rivojlantirish orqali ta'lim muassasalarida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, ularning kasbiy trayektoriyasini qo'llab-quvvatlash va innovatsion faoliyatga jalb etish mumkin. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida strategik rejalashtirish, muammolarni tahlil qilish, nostandart yechimlarni topish hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqaruv kompetensiyasining yana bir muhim jihati iqtisodiy kompetensiya bilan bog'liqdir. Iqtisodiy kompetensiyaga ega bo'lgan shaxs ta'lim tizimini moliyaviy ta'minlash, budjet va budjetdan tashqari mablag'lardan samarali foydalanish, moliyaviy resurslarni tahlil qilish hamda iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash masalalarini chuqur tushunishi zarur. Bundan tashqari, ta'lim xizmatlari marketingi hamda nodavlat ta'lim xizmatlari sektorini rivojlantirish zamonaviy boshqaruv kompetensiyalarining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy boshqaruv jarayonida psixologik omillar ham muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda tashkilot faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan rahbarning psixologik bilimlari, jamoa bilan ishlash qobiliyati hamda kommunikativ mahoratiga bog'liq. Shu sababli boshqaruv faoliyatini o'rganishda psixologik yondashuvlardan keng foydalaniladi.

Talabalar boshqaruv faoliyatini o'rganishda uchta asosiy psixologik yondashuv ajratib ko'rsatiladi:

- funksional yondashuv;
- shaxsga yo'naltirilgan yondashuv;
- vaziyatli (xulq-atvor) yondashuv.

Funksional yondashuvga ko'ra, rahbar yoki liderning samarali faoliyati uning bajarishi lozim bo'lgan funksiyalari bilan belgilanadi. Menejment nazariyasining taniqli vakillari, jumladan Peter Drucker va William H. Newman boshqaruv funksiyalarini ikki asosiy guruhga ajratadi: texnik funksiyalar hamda inson resurslarini boshqarish bilan bog'liq funksiyalar. Ushbu yondashuv zamonaviy tashkilotlarda samarali boshqaruv tizimini shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.



1-jadval. Rahbar faoliyatining asosiy professional funksiyalari

№	A.Fayol, YE.S.Kuzmin, G.Kuns, S.Donnel va boshqalar tomonidan rahbar bajarishi lozim bo'lgan 12 ta professional funksiyalarni umumlashtirgan holda sanab o'tish mumkin.	
1.	bilish – boshqaruv orqali qamrab olingan inson, jamoa, tashkilotning ichki va tashqi muhiti, boshqaruvga oid eng dolzarb vaziyatni bilish;	tashkil etish – boshqaruv maqsadi va vazifalarini amalga oshirish;
2.	prognozlash – boshqarilayotgan obyektlar rivojining asosiy yo'nalishi va dinamikasini aniqlash;	o'qitish – tashkilot personaliga zarur kompetensiyaga ega bulish;
3.	rejalashtirish – tashkilot missiyasi, maqsad va vazifalarini aniqlash, tashkilot faoliyatini rejalashtirish va maqsadga erishish dasturlarini yaratish;	rivojlantirish – shaxs va guruhning psixologik xususiyatlarini maqsadga muvofiq tarzda o'zgartirish;
4.	kommunikativ – kommunikativ alokalarni urnatishda va tartiblashda boshqaruvga oid ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, maqsadga muvofiq ravishda moslashtirish hamda yo'naltirish;	baholash – faoliyat standartlari hamda meyorlarini shakllantirish va qo'llash;
5.	motivatsiya – boshqaruv subyekti va obyekti faoliyatini faollashtirish va yo'naltirish bilan bog'liq bo'lgan tashqi va ichki sharoitlarga ratsional ta'sir etish;	nazorat – tashkilotning ayni paytdagi holatini boshqaruv maqsadiga mos ekanligini aks ettirish;
6.	boshqaruv – taklif etilayotgan qarorlar va ularning ijrosi bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga olishda mavjud normativ qonunlar yoki tashkilot ichida qabul qilingan kelishuvlarga asoslanish;	korreksiyalash – boshqaruv maqsadi va dasturiga zarur o'zgarishlar kiritish.

Boshqaruv faoliyati ko'p funksional xususiyatga ega bo'lib, bu jarayon boshqaruv tizimining murakkab hamda ko'p qirrali ekanligini namoyon etadi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy boshqaruvni samarali tashkil etishda rahbarlik salohiyatiga ega bo'lgan talabalarni aniqlash va ularni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli boshqaruv kompetensiyasiga ega talabalarni tanlash va tayyorlash jarayonida ularning boshqaruv funksiyalarini bajarishga tayyorlik darajasi alohida baholanadi.

Boshqaruv nazariyasida rahbarlik faoliyatini tushuntirishda turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ular orasida shaxsga yo'naltirilgan, funksional hamda vaziyatli yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Ushbu yondashuvlar oliy ta'lim muassasalarida liderlik salohiyatiga ega talabalarni shakllantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv:

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga ko'ra, samarali boshqaruv talabalarda mavjud bo'lgan shaxsiy sifatlar va individual xususiyatlar bilan belgilanadi. Bu yondashuv rahbarlik faoliyatida shaxsning psixologik xususiyatlari, intellektual salohiyati, kommunikativ qobiliyati hamda liderlik fazilatlariga alohida e'tibor qaratadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, samarali rahbar yoki lider talabaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning intellektual salohiyatiga bog'liqdir. Jumladan, tafakkurning egiluvchanligi, murakkab vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish qobiliyati, tahliliy fikrlash hamda ijodiy yondashuv kabi sifatlar samarali boshqaruvning muhim omillari hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalarning kreativ fikrlash, tashabbuskorlik hamda innovatsion g'oyalarni ilgari surish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim vazifa sifatida qaraladi.

Vaziyatli (xulq-atvor) yondashuvi:

Zamonaviy boshqaruv nazariyasida keng qo'llaniladigan yondashuvlardan yana biri vaziyatli yondashuv hisoblanadi. Ushbu yondashuv vakillaridan biri bo'lgan Fred Fiedler rahbarlik samaradorligi muayyan vaziyat sharoitlariga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, rahbarni mutlaqo samarali yoki samarasiz deb baholash to'g'ri emas, chunki bir vaziyatda muvaffaqiyatli bo'lgan boshqaruv uslubi boshqa vaziyatda kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida rahbarlik salohiyatiga ega bo'lgan talabalarni tayyorlash jarayonida ularga turli boshqaruv vaziyatlarini tahlil qilish, muammolarni hal etish hamda qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Vaziyatli yondashuvga ko'ra, samarali boshqaruvni ta'minlovchi asosiy omillardan biri talabaning jamoani boshqarish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatidir.

Vaziyat tushunchasi boshqaruv jarayonida muhim o'rin tutadi. Vaziyat deganda muayyan tashkilot yoki jamoada mavjud bo'lgan obyektiv sharoitlar majmui, boshqaruv obyektlarining holati, jamoa a'zolari o'rtasidagi shaxslararo munosabatlar hamda ularning o'zgaruvchan dinamikasi tushuniladi. Bunday sharoitlarda boshqaruv kompetensiyasiga ega talaba muammoni tahlil qilish, vaziyatni to'g'ri baholash hamda mos boshqaruv usulini tanlash qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim vaziyatlarda rahbardan yumshoqlik, muloqotga ochiqlik hamda murosaga moyillik talab etilsa, boshqa holatlarda esa qat'iylik, tezkor qaror qabul qilish va hatto tavakkal qilish qobiliyati



zarur bo'ladi. Demak, zamonaviy boshqaruv jarayonida rahbar yoki lider talaba turli vaziyatlarga moslashuvchan bo'lishi hamda boshqaruv uslublarini vaziyatga qarab o'zgartira olishi zarur.

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida vaziyatli yondashuv asosida talabalarda boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlar tahlili (case-study), loyiha asosida o'qitish, biznes o'yinlari hamda interaktiv metodlardan keng foydalanilmoqda. Ushbu usullar talabalarning analitik fikrlashini rivojlantirish, jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda real boshqaruv vaziyatlariga moslashish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshqaruvda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, globallashtirish va raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'lim muassasalarini samarali boshqarish uchun an'anaviy boshqaruv usullari bilan bir qatorda innovatsion va strategik yondashuvlarni joriy etish zarur. Ayniqsa, raqamli boshqaruv tizimlari, ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish (data-driven management), ta'lim jarayonini avtomatlashtirish hamda sifat menejmenti kabi mexanizmlar oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Tahlillar natijasida ma'lum bo'lishicha, oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy etish ta'lim sifati, ilmiy-tadqiqot faoliyati hamda kadrlar tayyorlash jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, strategik rejalashtirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash, akademik mustaqillikni kengaytirish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlar oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya, bilimlar iqtisodiyoti hamda innovatsion menejment asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Masalan, ko'plab universitetlarda elektron boshqaruv platformalari, masofaviy ta'lim tizimlari, ta'lim analitikasi hamda sun'iy intellektga asoslangan boshqaruv qarorlari keng qo'llanilmoqda. Bu esa ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish hamda talabalarning bilim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatimizda ham oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini oshirish hamda universitetlar boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, xalqaro reytinglarda ishtirok etish hamda ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish kabi chora-tadbirlar bu borada muhim natijalarga erishish imkonini bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent, 2020. – 26 dekabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021. – 464 b.
3. Inoyatov U.I. Upravlenie kachestvom obrazovaniya na urovne professionalnogo kolledzha: monografiya. – Tashkent: Moliya, 2002. – 105 s.
4. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Voris, 2006. – 264 b.
5. Daft R.L. Menedjment. 8-izd. / Per. s angl.; pod red. P. Mordvina. – Sankt-Peterburg: Piter, 2010. – 800 s.
6. Ismadiyarov Y.O'. Oliy pedagogik ta'lim tizimida innovatsion menejmentni shakllantirish mexanizmlarini rivojlantirish: ped. fan. dok. (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2018. – 246 b.
7. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2006. – 196 b.
8. Mirsoliyeva M.T. Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari: ped. fan. dok. (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
